



“Bemor” hikoyasi orqali ijtimoiy adolatsizlik talqini.

**Jo'rayeva Farida
Ulug'bek qizi**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, o'zbek tili va adabiyoti, 1-bosqich talabasi

**Burxonova Feruza
Abdurazzoqovna**

*Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti, filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
Email: faridajurayeva36@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning “Bemor” nomli hikoyasi ilmiy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida asarda ilgari surilgan boy va kambag'allar o'rtasidagi tafovut, ularning o'zaro munosabatlari, shuningdek, hikoyaning bosh obrazi – bemor ayol obrazi orqali muallif butun bir xalqning o'sha davrdagi bemor jamiyatning holatini ochib beradi. Tadqiqotning natijalari hikoyaning ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qahhor, bemor, ilmsizlik, qoloqlik.

Аннотация: В данной статье проводится научно-художественный анализ рассказа «Большая» узбекского национального писателя Абдуллы Каххара. В процессе анализа автор выявляет различие между богатыми и бедными, их взаимоотношения, а также главного персонажа рассказа — больную женщину, что отражает состояние больного общества всего народа того времени. Результаты исследования служат обоснованию социально-познавательной значимости рассказа.

Ключевые слова: Абдулла Каххар, большая, невежество, отсталость

Abstract: This article analyzes the story of the Uzbek people's writer Abdulla Qahhar “The Sick” from a scientific and artistic point of view. In the process of analysis, the author reveals the difference between the rich and the poor, their mutual relations, as well as the main character of the story – the sick woman, which is presented in the work. The results of the study serve to substantiate the social and educational significance of the story.

Keywords: Abdulla Qahhar, sick, illiteracy, stagnation

O'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida o'z uslubiga, o'z ovozigacha bo'lgan, adabiyotimiz taraqqiyotiga sezilarli ijobiy hissa qo'shgan zabardast adiblarimizdan biri hisoblanadi. Uning hikoyalarida satirik va yumorist sifatida o'z talantining yangi qirrasini namoyish etgan. Unda kulgichilikka

tamoyili zo'r edi. Buni juda ko'p asarlari aytib turadi. Mana shulardan biri bu yozuvchining "Bemor" hikoyasidir. Bu hikoyada asosan jamiyatning qoloqligi ochib berilgan.

Hikoyada Sotiboldining xotini kasal bo'lib qoladi. Sotiboldi uni turli yo'llar bilan davolatmoqchi bo'ladi. Uni o'qitadi-bo'lmaydi, tabibga ko'rsatadi. Tabib bemordan qon oladi, keyin esa bemorning boshi aylanib, ko'zi tinadigan bo'lib qoladi. Aynan mana shu joyda ham Sotiboldining qilgan ishini tanqid ostiga olish mumkin. Negaki, bemor insondan qon olishning o'zi xato hisoblanadi. Hattoki tabibning o'zi ham o'ylab o'tirmay qon olib ketaveradi. Jamiyatdagi insonlarning ilmdan yiroqligini mana shu vaziyatdan ham bilib olish mumkin. Yokida bu holat allaqanday bir xotinning kelib bemorni tolning xipchini bilan savalashi, tovuq so'yib qonlashidan bilib olish mumkin.

Hikoyada yana bir dolzarb masalalardan biri bu tabaqalanish holatlarini ham yaqqol sezishimiz mumkin. Misol uchun: Sotiboldi moddiy tomondan zaifligi tufayli tufayli xo'jayini Abdug'aniboyning yoniga pul so'rab boradi. Lekin u boy bo'lgani bilan Sotiboldiga hech qanday yordam bermaydi. Buni biz vaziyatga moslab xasis boylardan deb ham misol qilishimiz mumkin. Har bir narsa pulga borib taqalganligi uchun Sotiboldi chorasizlikdan hattoki kecha-yu kunduz savatlar to'qib sota boshlaydi. Pul desa Sotiboldining hayoliga izvosh va oq podshoning surati tushirilgan 25 so'mlik pul kelar edi.

Hikoyada shuningdek beg'ubor jajjigina qizaloqning bemor onasiga bo'lgan samimiy mehri alohida e'tiborga sazovor bo'ladi. 4 yashar qiz qo'liga ro'molcha olib onasining yuzini xira pashshalardan asraydi, hattoki qo'lidagi ro'molchasini ushlagan holda uxlab qoladi. Ertalab saharda turvolib, onasidan ayrilib qolmaslik uchun "Iloyo ayamni daydiga davo beygin" deb duo qiladi. Jajji qizaloqning mehribonligi, samimiyligini mana shu holatda ham ko'rishimiz mumkin. Hikoya so'nggida ham Sotiboldi "Chilyosin" armon bo'lib qolmasin deb shuni ham sinab ko'radi. O'sha davrda insonlar ilmdan ko'ra irim-sirimlarga ko'proq tayanganligi tasvirlanadi. Chunki Sotiboldi bemor ayolini keraksiz narsalarga pul sarflab tuzatmoqchi bo'lgandan ko'ra birinchi bo'lib uni shifokorga ko'rsatganda balki hammasi boshqacha bo'lishi mumkin edi. Ayoli kerakli muolajalarni olib, tuzalib ketishi mumkin edi. Xotini ham hadeb azob tortavermay, murdaga aylanmasligi mumkin edi.

"Bemor" hikoyasida qahramonlar obrazlari asarning g'oyaviy va badiiy asosini tashkil etadi. Abdulla Qahhor hikoya sarlavhasidan kelib chiqib "Bemor" deb aslida haqiqiy bemor jamiyat ekanligini ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor "Bemor"

2. Matyoqub Qo'shjonov "Saylanma"